



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	
BYUDJET TASHKIOTLARIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HISOB, NAZORAT VA ICHKI AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY MAZMUNI	43
Abdulazizov Aziz Anvar o'g'li	
MAMLAKATIMIZ KOMPANIYALARI BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR.....	49
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
TIJORAT BANKLARIGA KAPITAL BOZORI ORQALI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH YO'LLARI.....	58
Qurbonova Vazira Ravshan qizi	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL-MOLIYAVIY INTEGRAL INDEKSI	62
Bobojonova Shahnoza Otaxonovna	
DUNYODA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI	69
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	73
Муминжонов Анварбек Сайфитдин угли	
ANSWERING BUYER CARBON-DATA REQUESTS: A MINIMUM ACCOUNTING CONTOUR FOR SECOND-TIER EXPORTERS IN EMERGING ECONOMIES.....	82
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	89
No'manov Javoxir Olimjon o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДЕГУРВА И ГЛОБАЛЬНОГО СЛОЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО СТЕПЕНИ УРБАНИЗИРОВАННОСТИ	96
Салимова Юлдуз Исаковна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDII SAMARADORLIGINI BAHOLASH: RAQAMLI INFRASTRUKTURA VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	105
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	



O'ZBEKISTON MINTAQALARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH VA HUDUDLARARO TAFOVUTLARNI ANIQLASH.....	112
Ismatov Fazliddin Ibodovich	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	117
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	124
Рахмонов Мирвохид Ражабович	
ADVANCING SUSTAINABLE AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN THROUGH BILATERAL CARBON CREDITING MECHANISMS.....	133
Dilfuza Arifkhodjaeva	
Gulchekhra Nematullayeva	
Bakhtiyor Pulatov	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEKANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	141
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEKANIZIMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	150
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	156
Асомиддинова Музайянхон Абдурахмон кизи	
AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA KAMBAG'ALLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK EVOLYUTSIYASI HAMDA ZAMONAVIY BOSHQARUV KONSEPSIYALARI.....	164
Negmatullayeva Zarina Baxodirovna	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISH VA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	171
Siddiqov Zoxid Tulkunovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING KOMPLEKS IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	178
Madrahimova Onajon Javlon qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI.....	184
Nizamov Aslitdin Badreddinovich	
SUDLARNI MOLIYAVIY JIHATDAN BOSHQARISHNING XUSUSIYATLARI.....	191
Toshev Yigitali Boboqulovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AXBOROTLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KOMPILYATSIYA QILISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	197
Bekberganova Farangiz Birodar qizi	
TOROID O'ZAKLI TO'G'RI CHIZIQLI HARAKAT IJRO ELEMENTINI DOIMY MAGNIT VA CHULG'AMNING O'ZARO TA'SIRI ASOSIDA ELEKTROMAGNIT KUCH HOSIL BO'LISH JARAYONINI TADQIQ ETISH.....	202
Abdullayev Mahmudjon Muxammedovich	
НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМНОГО МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ УСЛУГАМИ В РЕГИОНАХ.....	214
Якубов Н.А.	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	221
Bauyetdinov M.J.	
Rustamova A.B.	



ЦЕНОВАЯ ПОЛИТИКА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИТНЕС-КЛУБОВ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ	226
Соловьева Фарангиз Анваровна	
AQSHDA XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH IQTISODIY MEKANIZMI AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	232
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	
XIZMATLAR SEKTORI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	237
Tursunova Shahlo Sayfillayevna	
DAVLAT SEKTORIDA KADRLAR TAQSIMOTINING TAHLILI	243
Xodjayev Furkat Salimovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНТЕЙНЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫМ ТРАНСПОРТОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	249
Ахмедова Дилафруз Муратовна	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA RAQAMLI TAFOVUT VA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING KONVERGATSIYA HAMDA DEKOMPOZITSION TAHLILI	258
Murotjonova Mubina Dilshod qizi	
TURISTIK FIRMALARDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY TURISTLARNI JALB QILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	267
Tolibova Aziza To'liqin qizi	
THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF ENERGY COST ACCOUNTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	274
Ergasheva Maftuna Asad kizi	
INSON RESURLARINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA UNING MEHMONXONA BIZNESI KORXONALARIDAGI NAMOYON BO'LISHI	282
Narzullayeva Sarvinoz Askar qizi	
QURILISH KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINING TARKIBIY ELEMENTLARI VA AMAL QILISH TAMOYILLARI	290
Mirzayeva Xulkar Abduladjon qizi	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINING TARKIBIY BARQARORLIGI: EVOLYUTSION CHIDAMLILIK VA TARMOQLARARO BOG'LIQLIKNING EKONOMETRIK BAHOSI	297
Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА ОРГАНИЗАЦИЙ	304
Адилова Сакина	
OLIJ TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT BUDJETINING ROLI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	310
M.M. Tashhodjaev	



OLIY TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT BUDJETINING ROLI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

M.M. Tashhodjaev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat budjetining roli va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Oliy ta'limning keng qamrov darajasini ta'minlashda davlat budjeti asosiy moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lishi, biroq ta'lim qamrovining kengayishi sharoitida yuqori sifatga erishish murakkablashishi asoslangan. Shuningdek, oliy ta'limni yuqori sifat darajasida ta'minlash va uni soliqlar hisobidan moliyalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, qamrov darajasining nisbatan cheklanganligi hamda yuqori sifat va keng qamrovni bir vaqtda ta'minlashning davlat budjetiga yuklaydigan moliyaviy yuki tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari oliy ta'limni moliyalashtirishda qamrov, sifat va budjet imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, davlat budjeti, moliyaviy menejment, ta'lim menejmenti, natijaga yo'naltirilgan budjet.

Abstract: The article examines the role and specific features of the state budget in financing the higher education system. It substantiates that the state budget serves as the main financial source for ensuring broad access to higher education, while achieving high quality becomes more challenging as educational coverage expands. The study also analyzes the relationship between ensuring a high level of quality in higher education and financing it through tax revenues, the relatively limited level of coverage, and the financial burden placed on the state budget by the simultaneous provision of high quality and broad access. The research findings demonstrate the need to maintain a balance between coverage, quality, and budgetary capacity in financing higher education.

Keywords: higher education, state budget, financial management, education management, results-based budgeting.

Аннотация: В статье исследуются роль и особенности государственного бюджета в финансировании системы высшего образования. Обосновано, что государственный бюджет выступает основным финансовым источником обеспечения широкого охвата высшим образованием, однако достижение высокого качества становится более сложной задачей в условиях расширения охвата образования. Также проанализированы взаимосвязь между обеспечением высокого уровня качества высшего образования и его финансированием за счет налоговых поступлений, относительно ограниченный уровень охвата, а также финансовая нагрузка на государственный бюджет, возникающая при одновременном обеспечении высокого качества и широкого охвата. Результаты исследования показывают необходимость обеспечения баланса между охватом, качеством и бюджетными возможностями при финансировании высшего образования.

Ключевые слова: высшее образование, государственный бюджет, финансовый менеджмент, менеджмент образования, бюджетирование, ориентированное на результаты.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimi yuqori texnologiya, malaka, tajribalar va fiskal cheklanishlar doirasida davlat majburiyatlari saqlanib qolishi o'rtasida to'qnashuvlarga duch keladi. Oliy ta'limning boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimidan farqli jihati uning bozor iqtisodiyoti qonunlariga bo'ysunib ishlay olish imkoniga ega ekanligidir. Unda o'zaro raqobat va narx omilining muhim ahamiyatga ega ekanligi tizimda moliyaviy menejmentning zaruriy kategoriya sifatida vujudga kelishini asoslaydi. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki mamlakatni uzoq istiqbolda geosiyosiy maydondagi obro'yini mustahkamlashga xizmat qiluvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.

XXI asrda jahon iqtisodiyoti, global munosabatlar keskin o'zgarishlar va o'ta mohirona yondashuv, tajribani talab etayotgan tizimga aylandi. Bu esa yuqori bilim va malakalarni talab etishi bilan oliy ta'limga bo'lgan, ayrim



hollarda umuman o'rganilmagan talablarni yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt nazariyasining vujudga kelishi va undan sanoat inqilobining to'rtinchi bosqichida keng ko'lamli foydalanish tendensiyasi oliy ta'lim bozorida moliyaviy qarorlar qabul qilishni ham tubdan qayta ko'rib chiqishning dolzarbligini ko'rsatib berdi.

Bizning yuqorida keltirilgan holatlar oliy ta'lim xizmatlari bozorida ikki muhim omilni ajratib o'rganishni talab etmoqda. Bular, xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish yoki moliyaviy qarorlarni qabul qilish mezonlari va ikkinchidan, ta'lim sifatini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar tizimini qaytadan ko'rib chiqish. Shu boisdan, oliy ta'limni moliyalashtirish borasida davlatning roli yuqori bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunda uni yanada optimallashtirishda xususiylik omili birlamchi bo'lsa-da, lekin ta'lim sifatini mustahkamlash umumiylik omili asnosida shakllanishini taqozo etadi, deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish va unda davlat rol, ayrim jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz. Oliy ta'lim tizimi o'zining dastlabki rivojlanish bosqichiga chiqqan paytlarda davlat budjetining ahamiyati yuqori bo'lgan. Ayni kunda ham ko'plab mamlakatlar oliy ta'lim muassasalariga egalik qilishni saqlab qolgan bo'lsa-da, moliyalashtirish mexanizmlariga ko'plab xususiy omillarni joriy etishga ulgurgan.

Tadqiqotlarimiz asnosida aytganda, moliyalashtirish va ta'lim sifati mamlakatda oliy ta'lim qamrovi bilan bog'lanishi zarur. Shunday bo'lsa-da, bularning barchasiga bir paytda erishish albatta muayyan yondashuvlarni talab etadi. Bunda quyidagi holatlarni ko'rish mumkin:

- oliy ta'limning katta qamrov darajasi va budjetning beqiyos o'rni, shuningdek, ta'lim sifatini bunday keng auditoriyada ta'minlash uchun samarali mexanizmlarni shakllantirish;

- oliy ta'limda yuqori sifat va soliqlar hisobidan moliyalashtirish, shuningdek, ta'lim qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish imkoniyatlari;

- yuqori sifat va yirik qamrov darajasi davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda esa, budjet xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi katta ekanligi oliy ta'lim bilan qamrov olish miqyosini bosqichma-bosqich kengaytirish uchun mavjud moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Buning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanish va xususiy manbalardan foydalanish mexanizmlarini yanada rivojlantirish bilan ifodalash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlatning roli to'g'risidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy xulosalari va tadqiqotlari borasidagi izlanishlarimizni quyidagicha ko'rib o'tamiz.

Prof. D. Raxmonov "o'zining tadqiqotlarida ijtimoiy sohani moliyalashtirish borasidagi takliflarni berib o'tadi. Oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish va moliyalashtirishning yangi manbalarini shakllantirishga erishishni ta'kidlab o'tadi. Jumladan, budjetdan tashqari mablag'lar hajmini va oliy ta'lim qamrovini oshirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishni taklif etadi" [1]:

Birinchidan, hukumat tomonidan belgilanayotgan ta'lim to'lovi summasi oliy ta'lim muassasasining imkoniyatlari va yutuqlarini inobatga olishini rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, mazkur ta'lim to'lovlari universitetning reytingi bilan bog'liq ravishda belgilanishini joriy etishni jadallashtirish lozim.

Uchinchidan, ta'lim to'lovi summasining tabaqalashtirishga imkon berish oliy ta'lim muassasasi o'rtasida raqobat muhitini yanada jadallashtirishga sharoit yaratadi.

To'rtinchidan, davlat grantlari asosida o'qiyotgan talabalarning soni qisqarishi bilan oliy ta'limda budjet xarajatlari kamayishi vujudga keladi.

Beshinchidan, oliy ta'lim muassasasiga talabalikka qabul jarayonida maqsadli kvotalar amaliyotidan foydalanish bilan davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

A. Maxmudov oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish va uni boshqarishning xalqaro amaliyoti yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning uchta modeli mavjud. Ular:

"Erkin bozorga yo'naltirilgan moliyalashtirish modeli. Ushbu modelning turli ko'rinishlari ayrim Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi. Modelning asosiy maqsadi talabalar ta'lim olish sifat darajasini oshirish, OTM daromadlarini oshirish va kadrlarni ish o'rinlariga mos ravishda tayyorlashga qaratilgan.

Umumiy bozorga yo'naltirilgan ta'limni moliyalashtirish modeli. G'arbiy Yevropa mamlakatlari sotsial-demokratik partiyalari tomonidan ma'qullangan ushbu ta'limni moliyalashtirish tizimining xususiyati ta'lim oluvchining o'qish mobaynidagi va karyera yaratish davridagi o'z mas'uliyati bilan davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining javobgarligida muvozanat bo'lishidir" [2].



Muqobil integratsiyalashgan jamiyatga yo'naltirilgan ta'limni ijtimoiy moliyalashtirishning antibozor modeli. Kasaba uyushmalari namoyondalari uchinchi modelni afzal ko'radilar. Ularning fikriga ko'ra, davlat kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun ta'lim tizimini moliyalashtirishni o'z zimmasiga olishi lozim.

"Iqtisodiyot fanlari doktori N. Raxmonov oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirib bergan" [3]. Shuningdek, "ta'lim sifatini oshirishda professor-o'qituvchilar tarkibini darajalarga bo'lish, darajalarga bo'lishda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning bilimini, pedagogik ko'nikmasini hamda ilmiy tadqiqot ishlarida va yangi adabiyotlar yaratishdagi o'rnini hisobga olish, umuman, professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirish zarur. Professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish asosida o'qituvchilarning o'z mehnatidan manfaatdorligini oshirish asosida ta'lim sifatini keskin yaxshilash mumkin" degan xulosani asoslab bergan.

"X. Rejapov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi xulosalar keltirib o'tiladi" [4]:

- oliy ta'limni rivojlantirish shakllarini bozor talablari asosida tashkil etish va xalqaro oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvda milliy an'analaridan kelib chiqish;
- oliy ta'limni jahon andozalari asosida rivojlantirishning yangi integratsiyalashuvi andozalariga asoslanish;
- oliy ta'lim oliygohlarida olingan bilim diplom sifatida emas, balki talabalarning olgan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotda qo'llashiga qarab baho berish zarur.

Dos. D. Rustamova "o'zining ilmiy maqolasida oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratadi. Jumladan, mamlakatimizda ta'lim tizimiga budjetdan mablag'lar yo'naltirish hajmi yuqori ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan sezilarli daraja oshib 10 foizga yetganligini, davlat budjeti xarajatlardagi ulushi esa 35 foiz atrofida ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va shartnoma asosida ta'lim olish ko'lamini yanada oshirishni maqsadga muvofiq ekanligini asoslab beradi" [5].

Dos. A. Azimov "oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning ilg'or tajribalariga urg'u berib o'tadi. Xorijiy tajribalarni o'rganish natijasida xarajatlarni tizimlashtiradi. Shuningdek, ta'lim shartnoma to'lovlarini belgilashda qat'iy chegarani belgilamaslikni va uning ma'lum qismini davlat budjeti hisobidan qoplanishini taklif etadi" [6].

Fikrimizcha, yuqorida ilmiy xulosalari keltirilgan olimlar oliy ta'lim tizimida moliyalashtirishning turli jihatlariga e'tiborni qaratishgan. Ularning asosiy e'tibori davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish va xususiy sektor mablag'laridan foydalanish kabi jihatlarni qamrab oladi. Tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

– oliy ta'lim tizimida davlat budjeti mablag'lari hisobidan umumdavlat miqyosidagi tadbirlarni moliyalashtirishni saqlab qolish lozim. Ularga talabalar uchun turar joylarni qurish, daromadi kam bo'lgan aholi qatlamini qamrab olish xarajatlari, davlat muassasalari uchun maqsadli tarzda mutaxassislar tayyorlashni moliyalashtirish kabi elementlarni keltirish mumkin;

– oliy ta'lim tizimida bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlar me'yorlarini professor-o'qituvchilar shartlar soniga moslashtirish va auditoriya o'quv yuklamalarini optimallashtirish maqsadga muvofiq;

– oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilarning ish haqlariga qo'shimcha haqlar belgilashda "sinov muddatlari" degan kategoriyaga e'tibor qaratmaslik, asosiy omil sifatida professor-o'qituvchining salohiyati va dars olib borish sifati kabi ko'rsatkichlarga urg'u berish maqsadga muvofiq;

– oliy ta'lim muassasalarida ta'lim shartnoma to'lovlari hajmlarini shakllantirishda to'liq moliyaviy mustaqillikni ta'minlash lozim;

– oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni yanada rivojlantirish maqsadida tayanch oliy ta'lim tushunchasidan voz kechib, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqilishini oliy ta'lim muassasalari ixtiyoriga berish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslangan holda moliyalashtiriladi. Jumladan, qomusimizning 41-moddasida "har kim bilim olish huquqiga ega" deb belgilangan. Ushbu qoidaning belgilanishi ta'lim tizimida barcha islohotlarning aholining barcha qatlamini qamrab olishi zarurati bilan izohlanadi. Bu esa, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini anglatadi.

O'zbekistonda 2016-yildan boshlangan islohotlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli¹ Qonuni qabul qilinishi bilan asoslash mumkin. Mazkur huquqiy hujjatning qabul qilinishi bilan ta'lim jarayonining barcha bosqichlari tizimlashtirildi va uni moliyalashtirish asoslari mezonlar bilan belgilab berildi.

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>



Mazkur qonunga ko'ra, oliy ta'lim tizimi bakalavriat va magistraturadan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, har bir ta'lim bosqichining o'ziga xos xususiyatlari asoslangan. Unda umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek, ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Shuningdek, ushbu qonunning 9-bobi "Ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash" deb nomlangan bo'lib, unda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish asoslari keltirilgan. Birinchi navbatda, davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish davlat budjetidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Ushbu hujjatda belgilangan asosiy elementlardan biri — bu davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanligidir.

Fikrimizcha, zamonaviy ruh bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan mazkur qonunda davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini amalga oshirishga e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlab o'tganimizdek, oliy ta'lim tizimida bozor munosabatlarining rivojlanishi asrimizga xos bo'lgan tendensiya sifatida aks etmoqda. Bu esa, oliy ta'lim xizmatlari bozorida moliyaviy manbalarning davlat va xususiy sektor o'rtasidagi taqsimoti oliy nuqtasini topish dolzarblik kasb etmoqda. Zotan, yuqorida keltirilgan qonunda davlat ta'lim muassasalariga pulli xizmatlar taqdim etishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, muvozanat mezonlarini ishlab chiqish zarur bo'lmoqda.

O'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ko'rsatkich mezonlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 20-avgustdagi "Bir talabani o'qitish xarajatlaridan kelib chiqib budjet mablag'lari hisobiga oliy ta'lim muassasalarining xarajatlarini normativ rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori bilan amalga tadbiiq etilgan.

"Ushbu qo'shma qaror bilan davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat budjetidan mablag'lar ajratishni belgilab beruvchi qoidalar va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Jumladan, OTMga ajratiladigan budjet mablag'lari hajmining hisobi quyidagi formula asosida amalga oshiriladi"[7]:

$$BSV = (BNZ1 * K1 * (N + Nko)) + ((BNZ2 * K2 + BNZ3) * (N + Nko)) + (BND1 * (Nds - Nds_v) + BND2 * Nds_v) + (OTsns * Nsns),$$

Bunda:

BSV — OTM uchun budjet mablag'lari hajmi;

BNZ1 — mehnatga haq to'lash, yagona ijtimoiy to'lov, stipendiya va mehnatga soatbay haq to'lash xarajatlarini hamda moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ustamalar va qonunchilik bilan belgilangan boshqa ustama va qo'shimchalarni o'z ichiga oluvchi OTMning bir talabasi uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativi;

BNZ2 — 4-guruh xarajatlari bo'yicha OTMning bir talabasi uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativi;

BNZ3 — asosiy aktivlarni xarid qilish va kapital ta'mirlash uchun ajratiladigan budjet mablag'lari hajmi aniqlanadigan OTMning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va yaxshilash xarajatlari bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

N — hamma ta'lim yo'nalishlari va bosqichlari bo'yicha o'rtacha yillik talabalar soni (sirtqi ta'lim talabalari uchun 0,1 koeffitsiyenti qo'llaniladi);

O'rtacha yillik talabalar soni moliya yilida rejalashtiriladigan talabalar sonining kurslar bo'yicha o'zgarishini inobatga olgan holda aniqlanadi (qabul, bitiruv, talabalar safidan chiqarish) va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$N = Un + Up/3 - Uv/2 - Uo * 0,6, \text{ bunda:}$$

N — o'rtacha yillik talabalar soni;

Un — yil boshiga talabalar soni;

Up — talabalarni qabul qilishning kutilayotgan soni;

Uv — bitiruvchi talabalarining kutilayotgan soni;

Uo — talabalar safidan chiqarishning kutilayotgan soni;

Nko — OTMning klinik ordinaturasida o'qiyotgan shaxslarning o'rtacha yillik soni (tibbiyot OTMlari uchun);

K1 — OTMdagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llaniladigan OTMning mehnatga haq to'lash, yagona ijtimoiy to'lov va stipendiya xarajatlari hajmini oshiruvchi tuzatish koeffitsiyenti;

K2 — OTMdagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llaniladigan OTMning 4-guruh xarajatlari hajmini oshiruvchi tuzatish koeffitsiyenti;

BND1 — to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qaramog'isiz qolgan OTMning bir talabasi ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;



BND2 — to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qaramog'isiz qolgan OTMning bir bitiruvchi talabasi ta'minoti bo'yicha xarajatlarning bazaviy normativi;

Nds — to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qaramog'isiz qolgan OTM talabalari yil boshiga soni;

Ndsv — joriy moliya yilida to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qaramog'isiz qolgan OTMning bitiruvchi talabalari soni.

OTsns — joriy moliya yilidagi katta ilmiy xodim-izlanuvchining mehnatiga haq to'lash jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lovni hisobga olgan holda (joriy moliya yilining 1-yanvar holatidagi katta ilmiy xodim-izlanuvchining lavozim maoshidan kelib chiqqan holda hisoblanadi);

Nsns — OTMning oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida o'qiyotgan katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning o'rtacha yillik soni.

Bizningcha, mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini budgetdan moliyalashtirishda bir talabaga to'g'ri keluvchi xarajatlar me'yori muhim ahamiyatga ega ekan. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida bir professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar sonini belgilash bilan shtatlar sonini ham shakllantirishga asos yaratadi. Shu boisdan, bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdori bilan oliy ta'lim muassasasidagi jami shtatlar sonini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlatning roli muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada ta'lim tizimining bosqichlarini moliyalashtirish hajmining o'zaro nisbati ham olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda budget mablag'larining ulushi katta ekanligi moliyaviy resurslar manbalarini diversifikatsiya qilishni taqozo qiladi.

Shuningdek, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish hajmini yanada ko'paytirish ayni kundagi dolzarb masala bo'lsa, uning tarkibida budgetdan tashqari mablag'lar hajmini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada, yuqorida ilmiy xulosalari o'rganilgan bir qator olim va tadqiqotchilar ilmiy asarlari shular jumlasiga kiradi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda oliy ta'lim tizimi hal qiluvchi omilga aylanishi ushbu masalaning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlab beradi. Binobarin, iqtisodiyotda cheklangan resurslardan samarali foydalanish orqali cheksiz ehtiyojlarni ta'minlash ilmiy tadqiqotlar obyekti doimiy e'tiborida bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Masalan, inson salohiyatining tuganmas deb olsak, uni oliy ta'lim tizimida oladigan bilim va ko'nikmalar orqali boyitish cheklangan resurslarning dolzarbligini kamaytirishi mumkin.

Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ma'lumot olganlarning soni ish bilan bandlarning 3 foiziga, sanoati rivojlanish bosqichida bo'lgan davlatlar aholisining 20 foizini tashkil etib, innovatsion iqtisodiyotda esa ushbu raqam 60 foizga teng bo'lmoqda. E'tiborli jihati bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda band aholining 80 foizi oliy ma'lumotga ega hisoblanadi [8]. Ushbu raqamlar esa, oliy ta'lim sohasiga e'tibor qaratish va uni yanada rivojlantirish nechog'liq ahamiyatga ega ekanligini aks ettiradi.

Qayd etib o'tganimizdek, oliy ta'lim xizmatlari bilan aholini qamrab olish darajasi umumdavlat miqyosida ta'lim sifatini ta'minlashda davlat tomonidan moliyalashtirishning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bu esa, soliqlar hisobiga oliy ta'limni ta'minlash ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkinligini anglatadi. Bizningcha, oliy ta'lim tizimi qamrovi kichik ulushlarda bo'lgan paytda soliqlar orqali moliyalashtirish o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, oliy ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishini ixtisoslashuv shaklida amalga oshirishni belgilash ham o'zining ijobiy natijasini beradi. Davlat budjeti mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi oliy ta'limda bozor iqtisodiyoti elementlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchidan, birinchi darajali ijtimoiy masalalarni moliyalashtirishga ham ustuvorlik berish imkonini yaratmoqda. Bularga misol sifatida maktab ta'limiga bo'lgan talab ortishi, pensiya tizimi xarajatlari ortishi va majburiy tibbiy sug'urta tizimining amalga kiritilishi kabi rivojlanish tendensiyalarini keltirish mumkin.

Bizningcha, oliy ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda quyidagi omil va yo'nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- oliy ta'limning davlat buyurtmalari asosida moliyalashtiriladigan sohalarini belgilash;
- aholining ma'lum qatlamiga oliy ta'lim xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun moliyaviy mablag'lar manzilliligini ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarida maqsadli tayyorlov uchun kvotalar ajratilishida universitetga to'liq mustaqillikni taqdim etish;
- oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar jalb etilishida to'lov shartnoma qiymatini mustaqil belgilash vakolatini berish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рахмонов Д.А. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришнинг методологик асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. ... автореферат. – Тошкент, ТДИУ. – 2018. – 72 бет.
2. Махмудов А.А. Олий таълим муассасаларида молиялаштириш ва тизимини бошқаришнинг халқаро амалиёти//“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 1, январь-февраль, 2015 йил
3. Рахмонов Н. Олий таълим муассасалари сифатини ошириш ва рақобатбардошлигини таъминлаш//“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журналы. № 2, апрель, 2019 йил.
4. Режапов Х.Х. Олий таълим тизимида хориж тажрибаси ва улардан фойдаланиш имкониятлари//“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2017 йил
5. Рустамова Д.Д. Ўзбекистонда олий таълим тизимини молиялаштириш масалалари//Замонавий таълим. – 2014. - №8. – Б.9-12.
6. Азимов А.Э. Таълим тизимини молиялаштиришнинг хориж тажрибаси// Замонавий таълим. – 2014. - №2. – Б.17-22.
7. Ғуломов С., Очилов И., Сайдахмедов О. Интеллектуал иқтисодиётда самарадорлик омиллари// Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси журналы. – Тошкент, 2015. - №6. – Б.38-41.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>